

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 9, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 9, ISSUE 1



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2026-1>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Ўзбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шнукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масъул қотиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

Мўминова Маъсума Ғолиб қизи
ф.ф.д., (PhD) вб. доцент

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистан)

Якуб Умар оғли
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джўраев Маматкул
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Балтабаев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Дўстмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Шнукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистан)

Муминова Масума Ғолиб қизи
PhD и.о. доцент

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammadov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

Mo'minova Ma'suma
PhD Acting Docent
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Tursunova Parvina Mamurjonovna NUTQIY HUSHMUOMALALIK IFODALANISHIDA YOLG‘ON ISHLATILISHINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI (ISPAN TILI MATERIALLARI ASOSIDA).....	5
2. Умурова Гузал Хотамовна ПСИХОЛОГИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА - ЗНАЧИМОСТЬ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА К ИЗУЧЕНИЮ И ОРГАНИЗАЦИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	10
3. Даминова Фазода Ирисовна ТЕОРЕТИКО-ИСТОРИЧЕСКИЕ И МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДРЕВНЕРУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	15
4. Рахматова Гулнора Турсиновна ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ: РЕЗУЛЬТАТЫ КОРПУСНОГО АНАЛИЗА.....	22
5. Усманова Салиха Юлдашевна ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ВВОДНО-МОДАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ.....	32
6. Ибаев Анвар Журабекович ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ОККАЗИОНАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЁ ТИПЫ.....	41
7. Т.А.Эргашева СОЛИҚ РЕЗИДЕНТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ХАЛҚАРО ҲУЖЖАТЛАРДАГИ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ТАҲЛИЛИ.....	47
8. Nomozov Abdiaziz Mustaqimovich ARAB VA INGLIZ MUROJAAT SHAKLLARINING QIYOSIY-PRAGMATIK TAHLILI: ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA KONTEKSTIDA.....	52
9. Davlatova Hulkaroy Uktamovna RAQAMLI MUHITDA BOLALIK: ZAMONAVIY SHAROITDA TIL O‘ZLASHTIRISH OMILLARI.....	58
10. Abdunazarova Maftuna Fakhriddinovna PRAGMATIC AND FUNCTIONAL ANALYSIS OF SPEECH ACTS IN DIALOGIC DISCOURSE.....	64
11. Nomozov Abdiaziz Mustaqimovich ARAB VA INGLIZ MUROJAAT SHAKLLARINING QIYOSIY-PRAGMATIK TAHLILI: ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA KONTEKSTIDA.....	71
12. Nilufar Abduraxmonova, Abdullayeva Shakhnoza Rakhimjon qizi ONTOLOGICAL MODELING INFORMATION TECHNOLOGY TERMS IN UZBEK.....	77
13. Aybibi ISKANDAROVA O‘ZBEK KORPUSHUNOSLIGIDA PARALLEL KORPUSGA OID TADQIQOTLAR VA ULARNING LINGVISTIK AHAMIYATI.....	87
14. Abdullaeva Sanobar Bakhrillaevna THEORETICAL STUDY OF PHRASEOLOGY IN THE ANTHROPOCENTRIC PARADIGM.....	83
15. Воҳидов Абдувахоб САМАРҚАНД ТОЖИКЛАРИ ШЕВАСИ ФРАЗЕОЛОГИК ЖУФТ ТАРКИБЛАРИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР.....	99
16. Усманова Салиха Юлдашевна, Мирзаева Шахло Ризаевна ИЗУЧЕНИЕ ГЛАГОЛОВ, СПОСОБНЫХ ПРИНИМАТЬ ПРЕДИКАТНЫЙ АКТАНТ.....	104

17. Zaynutdinova Durdona Asatovna ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A TOOL FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNERS (Evidence from EFL Settings in the Republic of Uzbekistan).....	109
18. Atabayeva Zarnigor Bakhran kizi THE DEMONIZATION OF DORIAN GRAY: AESTHETICISM, MORAL DECLINE, AND THE DUALITY OF HUMAN NATURE IN VICTORIAN LITERATURE.....	118
19. Ochilova Noila Farmonovna O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA “OTA”KONSEPTINING TALQINI.....	122
20. Abduraxmonova Sohiba Aktam qizi BOLALAR NUTQINING O‘RGANILISHI (ESKI NAZARIYALARDAN ZAMONAVIY YONDASHUVLARGACHA).....	126
21. Sharipov Raufjon Elmurod o‘g‘li AKADEMIK G‘ANIJON ABDURAHMONOVNING “TARIXIY SINTAKSIS” ASARIDA QO‘SHMA GAPLAR EVOLYUTSIYASI.....	130
22. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTLIK TUSHUNCHASINING LINGVISTIK TADQIQI.....	135
23. Nilufar Abduraxmonova, Nilufar Botirova SIYOSIY SOHAGA DOIR TARJIMA LUG‘ATINI SHAKLLANTIRISHDA PARALLEL MATNLARNING KONTEKSTUAL TAHLILI.....	141
24. N.M.Shamuradova INGLIZ TILIDA SO‘Z ODOBINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING DISKURSIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....	148
25. Sevinch Sherzodovna Xolmirzayeva ITALYAN TILIDAGI KO‘P MA‘NOLI SO‘ZLARNING TARJIMADA MA‘NO FARQLANISHI.....	152
26. Башарова Лейла РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ И ВОСПРИЯТИЕ АНТРОПОМОРФНЫХ ЖИВОТНЫХ В ДЕТСКИХ КНИГАХ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОЗНАНИЕ И РАЗВИТИЕ РЕБЕНКА.....	158
27. Ivanova Alena Yadmagieвна TACTILE GESTURES IN CHINESE EVERYDAY COMMUNICATION: TYPOLOGY, FUNCTIONS, CULTURAL MARKEDNESS.....	165
28. Ozoda Tojiboyeva, Xasanova Shaxodat Xamza qizi O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA HADISLARDAN FOYDALANISH AN‘ANASI.....	175
29. Asqar Abdullaev SYNTACTIC STRUCTURES: ESSENCE, TYPES, AND STUDIES IN GLOBAL LINGUISTICS.....	180
30. Nuraliyeva Ozoda Narbayevna FOLKLOR MATNLARIDA IQLIM HODISALARINING RAMZIY BADIYATI.....	185
31. Сабина Авазжоновна Махмудова ОСОБЕННОСТИ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ КОНЦЕПТА «ВОЙНА» В РОМАНЕ Р. ОЛДИНГТОНА «СМЕРТЬ ГЕРОЯ».....	193
32. Nasrullayev Javohirxon Ravshanxonovich RAQAMLI HUQUQIY MULOQOTDA YURIDIK TERMINLARNING IJTIMOY-LISONIY MOSLASHUVI.....	200




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

Tursunova Parvina Mamurjonovna
Samarqand davlat chet tillar instituti
mustaqil tadqiqotchisi

NUTQIY HUSHMUOMALALIK IFODALANISHIDA YOLG‘ON ISHLATILISHINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI (ISPAN TILI MATERIALLARI ASOSIDA)

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.20581573>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada nutqiy hushmuomalalik ifodalanishida yolg‘on ishlatilishining pragmatik xususiyatlari borasida fikr yuritiladi va shu bilan birga bu sohada ilmiy izlanish olib borgan tadqiqotchilarning izlanishlari ko‘rib chiqiladi. So‘zlovchining muloqot jarayonida yolg‘onni qanday hushmuomala vosita sifatida ishlatishi va uning tinglovchining imijiga ta‘siri sistematik tarzda ko‘rsatiladi. Ushbu tadqiqot nafaqat pragmatik nazariya, balki madaniyatlararo kommunikatsiya kontekstida ham qimmatli ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Verbal muloqot jarayonida kommunikatsiyaning samarali kechishini ta‘minlashda bir qator lingvistik xulq-atvor omillari muhim rol o‘ynaydi. Shu omillarga nutqiy hushmuomalalik hamda tinglovchining ijobiy va salbiy “imij” tushunchalari kiradi.

Kalit so‘zlar: nutq, madaniyat, muloqot, so‘zlashuv usuli, imij, ifoda, rostgo‘ylik, yolg‘on

Tursunova Parvina Mamurjonovna,
Independent researcher at the
Samarkand State Institute of Foreign Languages

PRAGMATIC FEATURES OF THE USE OF LIES IN THE EXPRESSION OF SPEECH POLITENESS (BASED ON SPANISH LANGUAGE MATERIALS)

Abstract: This article discusses the pragmatic features of the use of lies in the expression of politeness in speech, and also reviews the research conducted by scholars in this field. It systematically demonstrates how a speaker uses lies as a means of politeness in the process of communication and their impact on the listener’s image. This study serves as a valuable scientific resource not only in the field of pragmatic theory but also in the context of intercultural communication. In the process of verbal communication, a number of linguistic behavioral factors play an important role in ensuring effective communication. These factors include speech politeness as well as the concepts of the listener’s positive and negative “image.”

Keywords: speech, culture, communication, speaking style, image, expression, honesty, lie

Турсунова Парвина Мамуржонова,
Самостоятельный соискатель
Самаркандского государственного института иностранных языков

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЛЖИ ПРИ ВЫРАЖЕНИИ РЕЧЕВОЙ ВЕЖЛИВОСТИ (НА МАТЕРИАЛЕ ИСПАНСКОГО ЯЗЫКА)

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются прагматические особенности использования лжи при выражении речевой вежливости, а также анализируются исследования ученых, работавших в этой области. Системно показано, каким образом говорящий использует ложь как средство вежливости в процессе коммуникации и как это влияет на имидж слушателя. Данное исследование представляет ценность не только в рамках прагматической теории, но и в контексте межкультурной коммуникации. В процессе вербального общения важную роль в обеспечении эффективной коммуникации играют ряд факторов речевого поведения. К таким факторам относятся речевая вежливость, а также понятия положительного и отрицательного «имиджа» слушателя.

Ключевые слова: речь, культура, коммуникация, стиль речи, имидж, выражение, честность, ложь

KIRISH. Nutqiy hushmuomalalik — bu har qanday ijtimoiy muloqotning samarali kechishini ta'minlovchi asosiy pragmatik vositalardan biridir. Tilning amaliy jihatiga e'tibor qaratadigan pragmatika sohasida hushmuomalalikning o'rganilishi, so'zlovchining tinglovchiga nisbatan ijtimoiy hurmatni ifodalash strategiyalarini aniqlashga imkon beradi. Ayniqsa, hushmuomalalik kontekstida yolg'on ishlatilishi qiziqarli pragmatik fenomen sifatida e'tiborga loyiqdir, chunki u so'zlovchining maqsad va niyatlarini amalga oshirish yo'lida tinglovchining ijobiy va salbiy "imij"ini boshqarish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari ispan tilida nutqiy hushmuomalalik va yolg'onning madaniy, kontekstual va pragmatik jihatlarini yoritadi.

Lingvistika fani tilni turli kontekstlarda o'rganadi va shu doirada pragmatika tilning amaliy qo'llanilishini ham o'z ichiga oladi, xususan, kundalik verbal muloqot jarayonlarida nutqiy xatti-harakatlarni tadqiq qiladi. Pragmatikaning markaziy tushunchalaridan biri bo'lgan nutqiy akt so'zlovchining ma'lum maqsad va niyat bilan ifodalagan bayoni bo'lib, tinglovchini ma'lum tarzda harakat qilishga undashga qaratilgan. Bu jarayonda bayonning illokutiv kuchi so'zlovchining niyatini, perllokutiv kuchi esa tinglovchida yuzaga keladigan ta'sirni belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, nutqiy hushmuomalalik kontekstida yolg'on ishlatilishi so'zlovchining illokutiv niyatini amalga oshirish va tinglovchida ma'lum perllokutiv effekt hosil qilish vositasi sifatida tahlil qilinadi. Nutqiy hushmuomalalik oddiy ijtimoiy kod qoidalarining majmui emas, balki murakkab va kontekstga bog'liq hodisa bo'lib, bu tadqiqotda yolg'on ishlatilishi misolida tahlil qilinadi.

Nutqiy hushmuomalalik so'zlovchi tomonidan tinglovchida o'z shaxsiyati qadrlanayotganini his qilishini ta'minlashga qaratiladi. Bu shaxsiylik ijobiy "imij" sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, tinglovchi so'zlovchining nutqi yoki unga hamroh bo'ladigan noverbal xatti-harakatlar orqali salbiy ta'sirga uchramasligini, ya'ni o'z harakatlariga to'sqinlik qilinmasligini xohlaydi, bu esa salbiy "imij" bilan bog'liqdir. Shunday qilib, nutqiy hushmuomalalik kontekstida yolg'on ishlatilishi tinglovchining ijobiy yoki salbiy imijini saqlashga qaratilgan strategiya sifatida ko'riladi, bunda so'zlovchi illokutiv niyat orqali tinglovchini o'z xohishiga mos harakat qilishga yo'naltiradi. "Imij" tushunchasi nutqiy hushmuomalalik bilan bevosita bog'liq bo'lib, so'zlovchi hushmuomalalik strategiyasidan foydalanganda tinglovchining ijobiy va salbiy imijini saqlashga intiladi. Shu nuqtai nazardan, nutqiy hushmuomalalik kontekstida yolg'on ishlatilishi ham tinglovchining ijobiy yoki salbiy imijini himoya qilish vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Aksincha, agar so'zlovchi hushmuomalalikni buzsa yoki yolg'onni noto'g'ri tarzda qo'llasa, tinglovchining imijiga tahdid soladi, bu esa muloqot jarayonida tushunmovchiliklar va noqulay vaziyatlarning yuzaga kelishiga olib keladi hamda kommunikatsiyaning samaradorligini kamaytiradi. Ushbu fikrlar Penelope Brown va Stephen Levinson tomonidan ilgari surilgan.

Shuningdek, pragmalingvistik tadqiqotlarda muhim hissa qo'shgan ispanist olim Henk Haverkate haqida ham to'xtalish lozim. U ispan tilida nutqiy hushmuomalalik va "imij" tushunchalarini chuqur o'rganib, bu borada nazariy va empirik tadqiqotlar olib borgan. Haverkate

Ispaniyada nutqiy hushmuomalalikning pragmalingsvistik xususiyatlarini tahlil qiladi va Penelope Brown hamda Stephen Levinson tomonidan ilgari surilgan ijobiy va salbiy imij tushunchalari, shuningdek, xarajat–foйда (cost–benefit) tahlili va H. Paul Grice tomonidan taklif qilingan suhbat maksimalariga tayanadi. Shu asosda u hushmuomala va nohushmuomala nutqiy aktlarni aniq belgilash va farqlash imkoniga ega bo‘ladi.

ASOSIY QISM. Nutqiy hushmuomalalik kontekstida yolg‘on ishlatilishini tahlil qilishda ham hushmuomalalikning mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash mumkin. Bunda so‘zlovchi tinglovchiga nisbatan hurmat va hamkorlikni ifodalash uchun qo‘llaydigan nutqiy strategiyalar markaziy ahamiyat kasb etadi. Henk Haverkatening fikriga ko‘ra, hushmuomala so‘zlovchi foydalanadigan uchta asosiy nutqiy strategiyani ajratib ko‘rsatadi, bu esa yolg‘onning pragmatik funksiyasini tushunishga xizmat qiladi.

(I) Suhbatdoshga o‘z irodangizni majburlamang.

(II) Variantlarni taklif qiling

(III) Suhbatdoshingiz o‘zini yaxshi his qilsin; muloyim bo‘ling Robin Lakoffning ta‘kidlashicha, I va II strategiyalar odatda buyruq yoki undov xarakteridagi nutq aktlariga xos bo‘lib, III strategiya esa muayyan bir nutqiy akt bilan bevosita bog‘lanmaydi. Dastlabki ikki strategiya suhbatdoshning undov (exhortativ) nutq akti natijasida o‘zini tahdid ostida his qilmasligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Ya‘ni, undov ifoda qilayotgan so‘zlovchi suhbatdoshning irodaviy sohasiga kirib boradi va uni ma‘lum bir harakatni bajarishga undaydi, bu esa ko‘pincha so‘zlovchining manfaatiga xizmat qiladi.

Shu bois I va II maksimalarga amal qiluvchi so‘zlovchi suhbatdoshga uning harakat erkinligiga tahdid solayotganini anglayotganini bildiradi. Demak, o‘z irodasini majburlamaslik va variantlarni taklif qilish orqali buyruq emas, balki iltimos ifodalanadi. I va II strategiyalar orqali ifodalangan hushmuomalalik salbiy hushmuomalalik, III strategiya orqali ifodalangani esa ijobiy hushmuomalalik deb ataladi. Henk Haverkate fikriga tayanib, har qanday so‘zlovchi, ona tilidan qat‘iy nazar, mutlaqo neytral nutq bera olmaydi, degan xulosaga keladi. Nutqiy ifoda, hatto yolg‘on ishlatilgan hollarda ham, hushmuomala funksiyani bajaradi yoki bajarmaydi. Ya‘ni, yolg‘on kontekstida ham hushmuomalalik mavjud bo‘ladi yoki mavjud emas — o‘rta holat yo‘q. Shu tarzda, yolg‘onning pragmatik xususiyati tinglovchining ijobiy va salbiy imijini saqlash yoki tahdid ostiga qo‘yish orqali nutqiy hushmuomalalikni shakllantiradi.

Tadqiqotchilar Penelope Brown va Stephen Levinsonlar “imij” tushunchasini ilmiy doiraga kiritib, uni ingliz tilida “face” (“yuz”) deb atashadi. Ushbu tushuncha individning jamiyatdagi ijtimoiy shaxsini ifodalaydi. Har bir insonning imiji ikki bir-biriga bog‘liq komponentdan iborat: ijobiy va salbiy. Ijobiy komponent shaxsning o‘zini qadrlash va jamiyat a‘zolari tomonidan bu qadrlashning tan olinishi, qo‘llab-quvvatlanishiga bo‘lgan intilishini ifodalaydi. Salbiy komponent esa har bir individning o‘z harakatlariga boshqalar tomonidan to‘sqinlik qilinmasligi istagini anglatadi. Brown va Levinsonlar bu tushunchani quyidagicha ta‘riflaydilar: “Bizning modelimiz markazida juda abstrakt bo‘lgan ‘face’ (‘imij’) tushunchasi joylashgan bo‘lib, u o‘zaro muloqot ishtirokchilari bir-biriga nisbat beradigan ikki turdagi aniq istaklardan (‘face-wants’) iborat: insonning o‘z harakatlarida to‘sqinlikka uchramaslik istagi (salbiy imij) va ma‘lum darajada ma‘qullanish istagi (ijobiy imij)”.

Shu nuqtai nazardan, nutqiy hushmuomalalikda yolg‘on ishlatilishi tinglovchining ijobiy va salbiy imijini himoya qilish yoki tahdid ostiga qo‘yish orqali pragmatik ta‘sir ko‘rsatadi, ya‘ni so‘zlovchi yolg‘onni hushmuomala strategiya sifatida ishlatadi. [“Modelimizning markazida juda mavhum tushuncha — ‘imij’ turadi. U o‘zaro muloqot ishtirokchilari bir-biriga nisbat beradigan ikki xil istakdan (‘face-wants’) iborat: inson o‘z harakatlarida to‘sqinlikka uchramasligi istagi (‘salbiy imij’) va uning harakatlari (muayyan darajada) ma‘qullanishi istagi (‘ijobiy imij’)”]

MUHOKAMA/NATIJALAR. Penelope Brown va Stephen Levinsonlarning nazariyasiga ko‘ra, ijtimoiy va verbal muloqot ishtirokchilardan bir-birining ushbu istaklarini — “face-wants”ni hurmat qilishni talab etadi. Agar bu istaklarga rioya qilinmasa, kommunikativ jarayonda ziddiyat yuzaga keladi. Bunday noqulayliklarning oldini olish uchun muloqot ishtirokchilari muvozanatni saqlashga intiladilar, ya‘ni o‘z imijlarini ham, suhbatdosh imijini ham himoya qilishga harakat qiladilar. Odatda hushmuomalalik strategiyalarini qo‘llashda ular o‘z nutqiy harakatlarini eng

noqulay talqin qilinishi mumkin bo'lgan nuqtadan kelib chiqib baholaydilar. Masalan, suhbatdoshning xato qilayotganini yoki noto'g'ri ma'lumotga ega ekanini aytish uni noqobil yoki savodsiz sifatida talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli bunday salbiy talqinning oldini olish uchun nutqda yumshatish (mitigatsiya) vositalari qo'llaniladi, masalan: en mi opinión, si no me engaño y puede ser que me equivoque, pero... "menimcha", "agar xato qilmasam", "balki adashayotgandirman, lekin..." kabi ifodalalar.

Kelishmovchilik yuzaga kelgan holatlarda ko'pincha muhokama qilinaotgan masalaning rost yoki yolg'onligi emas, balki suhbatdoshning zaifligi va nozik holati muhimroq ahamiyat kasb etadi. Henk Haverkate Maas va Dieter Wunderlich fikrlariga tayanib quyidagilarni ta'kidlaydi: [Bilvosita nutqiy aktlar, asosan, so'zlovchilar muhokama qilinaotgan masala bo'yicha kelishuvga erishishga katta ahamiyat bergan holatlarda qo'llaniladi. Shu yo'l bilan ular o'zaro munosabatlarga kelishmovchiliklar tahdid solishining oldini olishga harakat qiladilar. Bu, ayniqsa, suhbatdoshlar o'zaro kelishuv mavjudligini ko'rsatish yoki shunday ko'rinish yaratish muhim bo'lgan munozaralarda (masalan, televideniye bahslarida) yaqqol namoyon bo'ladi.] Suhbatdoshning salbiy imiji haqida so'z borganda, interaksiya qoidalariga murojaat qilish zarur. Bu qoidalarga ko'ra, individning harakatlariga asossiz ravishda to'sqinlik qilinmasligi lozim. Ya'ni, so'zlovchi tinglovchining harakatlarini cheklamaslikka harakat qilishi, maksimal darajada hamkorlik ruhida muloqot olib borishi zarur. Bu esa suhbatning erkin va muammosiz kechishini, suhbatdoshlar o'rtasida noqulayliklar yuzaga kelmasligini ta'minlaydi.

Tadqiqotchilar Penelope Brown va Stephen Levinsonlar salbiy hushmuomalalikni quyidagicha izohlaydilar: "G'arb madaniyatlarida hushmuomalalik haqida o'ylaganimizda, odatda, aynan salbiy hushmuomalalik xulqi ko'z oldimizga keladi. Bizning madaniyatimizda salbiy hushmuomalalik lingvistik strategiyalarning eng rivojlangan va eng an'anaviylashgan tizimi bo'lib, u odob-axloq qo'llanmalarining asosiy mazmunini tashkil etadi..." [G'arb madaniyatlarida hushmuomalalik haqida o'ylaganimizda, birinchi bo'lib esimizga keladigan narsa — salbiy hushmuomalalik xulqi bo'ladi. Bizning madaniyatimizda salbiy hushmuomalalik lingvistik strategiyalarning eng rivojlangan va eng an'anaviylashgan turini tashkil qiladi...; bu odob-axloq qo'llanmalarini to'ldiruvchi asosiy mazmundir...]

Shu asosda aniq bo'ladiki, hushmuomalalik ijtimoiy protokol qoidalari sifatida qabul qilingan, ammo kommunikativ kontekstda u tinglovchining imijini hurmat qilish, uning muloqotga qo'shgan hissasini qadrlash va suhbatning muvaffaqiyatli kechishi uchun hamkorlik qilish bilan bog'liqdir. Penelope Brown va Stephen Levinson shunday misol keltiradilar, unda so'zlovchi yuqori darajada majburlashni o'z ichiga olgan vaziyatni hisobga oladi va iltimosni ifodalashda katta nutqiy energiya sarflaydi: "Men sizni bunday ish bilan bezovta qilayotganim uchun juda afsusdaman, va normal sharoitlarda bunga hech qachon qo'l urmas edim, chunki sizning juda band ekanligingizni bilaman, lekin men buni o'zim uddalay olmayman".

Henk Haverkate ta'kidlaydi: suhbatdoshning harakat erkinligiga potentsial tahdid soluvchi nutqiy akti amalga oshirish uchun beshta strategiya mavjud.

Ushbu beshta strategiya quyidagilar:

1. (I) Nutqiy akti to'g'ridan-to'g'ri, hushmuomalalik ko'rsatmasdan bajarish;
2. (II) Nutqiy akti ijobiy hushmuomalalik bilan bajarish;
3. (III) Nutqiy akti salbiy hushmuomalalik bilan bajarish;
4. (IV) Nutqiy akti bilvosita (indirekt) bajarish;
5. (V) Nutqiy akti bajarishdan voz kechish.

XULOSA. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, nutqiy hushmuomalalik va yolg'on o'rtasidagi munosabat murakkab va kontekstga bog'liqdir. Ispan tilidagi og'zaki muloqotlarda suhbatdoshlar ko'pincha yolg'onni odob-axloq va muloqot samaradorligini saqlash vositasi sifatida ishlatadilar. Tadqiqot Haverkate, Brown va Levinson, shuningdek, Grice nazariyalariga tayangan holda shuni aniq ko'rsatdiki, yolg'on har doim salbiy yoki zararli hisoblanmaydi; aksincha, u tinglovchining ijobiy imijini saqlash, ziddiyatlardan qochish va muloqotni uyg'unlashtirish maqsadida qo'llanilishi mumkin. Ispan tilidagi materiallar tahlili, xususan telenovela va real hayotiy intervyular asosida, yolg'onning pragmatik xususiyatlari — kontekstga moslashuvchanligi,

muloqotdagi rollarga bog'liqligi va madaniy normalalar bilan uyg'unlashishi – ochib berildi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, nutqiy hushmuomalalikning asosiy vazifasi – suhbatning muvaffaqiyatli va samarali o'tishini ta'minlash, tinglovchining his-tuyg'ularini hisobga olish va ijobiy muloqot muhitini yaratishdir. Shu bilan birga, yolg'on ishlatilganda tinglovchi ko'pincha bu haqiqatni bilmasligi mumkin, lekin muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi va interlokutorning ijobiy imiji saqlanishi muhimdir. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, yolg'on – nafaqat axloqiy masala, balki pragmatik vosita bo'lib, hushmuomalalik ifodalarini samarali amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Nutqiy hushmuomalalik va yolg'on bir-birini to'ldiruvchi fenomenlar bo'lib, ular muloqot samaradorligini oshirish va ijtimoiy kontekstga moslashish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Brown, P., y Levinson, S., (1978). Universals in language usage: Politeness phenomena, en Questions and politeness : Strategies in social interaction, ed., E. Good, Cambridge, Cambridge University Press, 56-290.
2. Coulmas, F. (2005). Sociolinguistics. The study of speaker's choices. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Eslami-Rasekh, Z. (2005). Raising the pragmatic awareness of language learners. *ELT J*, 59(3), pp. 199-208.
4. Grice, H.P. (1975). Logic and conversation. In Peter Cole & J.L. Morgan (Eds.), *Syntax and Semantics* 3.41-58. New York, NY: Academic Press.
5. Gulnoza, R., & Lola, K. (2022). Obrazlar talqinida lingvistik imkoniyatlar. *Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies*. 2(Special Issue 3), 91-95.
6. Haverkate, H. (1994). *La Cortesía Verbal: Estudio Paralingüístico*. Madrid: Gredos.
7. Levinson, S.C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge: Cambridge University Press
8. Leech, G. (1983). *Principles of Pragmatics*. Harlow: Longman. Teaching and Learning. Oxford: Blackwell.
9. Liddicoat, AJ and Scarino, A. (2013). *Intercultural Language*.
10. Weinrich, H. (2005). *The Linguistics of Lying*. Seattle, WA: University of Washington Press.
11. J. L. Austin – *How to Do Things with Words* (Oxford University Press, 1962).
12. J. R. Searle – *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language* (Cambridge University Press, 1969).

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000